

9-SINF BIOLOGIYA DARSLIGIDAGI MADANIY O'SIMLIKLARNING KELIB CHIQUISH VA XILMA-XILLIK MARKAZI MAVZUSNI MATBUOT KONFERENSIYA METODI ORQALI O'TISH

Temirova M.U.

temirovamavluda023@gmail.com

Mamasodiqova M.M.

mokhigulmuzaffarovna@gmail.com

Andijon Davlat Pedagogika insituti talabalari 402-guruh talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14271970>

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Madaniy o'simliklarning kelib chiqish va xilma-xillik markazi" mavzusi matbuot konferensiyasi usulida, didaktik o'yin shaklida tashkil etilishi yoritib berilgan. Metodik yondashuv o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishda qiziqishlarini oshirish va faol ishtirok etishlarini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu usul orqali mavzuga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish hamda o'quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Annotation: The article highlights the use of the press conference method to teach the topic "Centers of Origin and Diversity of Cultivated Plants" in the form of a didactic game. This methodological approach aims to increase students' interest and active participation in mastering the topic. The method focuses on enhancing attention to the subject and exploring opportunities for implementing innovative approaches in the educational process.

Kalit so'zlar: Madaniy o'simlik, o'quvchi, guruh, o'qitish, metod, texnologiya.

O'qitish metodlari o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bu ularning asosiy funksiyalari sanaladi, shuningdek, mazkur metodlarning undovchi, rag'batlantiruvchi, uyushtiruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalari ham mavjud. O'qitish metodlari yagona ta'lim jarayonining ikkita subyekti bo'lgan o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini uyg'unlashtiruvchi, hamkorligini ta'minlovchi faoliyat usulidir. O'qitish metodlari o'qitishning moddiy vositalari bo'lgan darslik, ko'rgazmali, didaktik va tarqatma materiallar bilan uzviy bog'langandir. O'qitish metodlari aniq o'qitish usullaridan tarkib topadi va pedagogik jarayonga qo'llaniladi. O'qitish metodlari o'zaro bog'langan faoliyat usullari sifatida darsning barcha bosqichlari, tashkiliy qism, o'quvchilarning bilish motivlarini faollashtirish, yangi mavzuni o'rganish, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, olingan natijalarni tahlil qilish, uy vazifasini berishda foydalaniladi. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan faol metodlar guruhiga o'qitishning muammoli-izlanish metodlari, mantiqiy metodlar, mustaqil ishlash metodlari, o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirish va asoslash metodlari, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari kiradi. Faol metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilarning kichik guruhlarida hamkorlikda ishlab, muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi. Shu sababli, biologiyani o'qitishda o'qitishning reproduktiv metodlari bo'lgan og'zaki bayon, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda muammoli izlanish va mantiqiy metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchi mazkur metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ular tarkibiga kiradigan

metodik uslublarni to'g'ri anglashi va o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim. Muammoli izlanish metodlari dars davomida izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini faol o'zlashtirishiga 83% xizmat qiladi. Bu metodlar guruhi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng maqbul yo'lini topishi, mo'ljalni to'g'ri olishiga zamin tayyorlaydi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash texnologiyalaridan didaktik o'yinlar yaxshi samara beradi. Inson hayotida o'yin faoliyati quyidagi funksiyalarni bajaradi. Yani o'yin har doim qaysidir faoliyatga nisbatan qiziqishni ortiradi, o'yin davomida muloqot madaniyatini shakillantirishga yordam beradi, shaxslarni o'z fikrini, iqdidorini, qiziqishini namoyon etishga yordam beradi. O'yin faoliyatida ishtirokchilar rollarni vazifa topshiriqlarni erkin o'zlari tanlanlashadi.

Didaktik o'yinli darslar orqali quyidagi fuksiyani amalga oshiradi.

1. Ta'lim- tarbiya berish;
2. Shaxsni rivojlantirish
3. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish ;
4. Bilimlarni nazorat qilish va tahlil qilish;
5. Kasblar bilan tanishtirish va kasbga yo'naltirish;
6. O'quvchilarni muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

Matbuot konfirensiya usulida o'quvchilarga mavzu oldindan berib qo'yiladi. O'quvchilar o'zlari mustaqil tarzda tayyorgarlik ko'rishadi. Matbuot konfirensiya usulida o'quvchilar 2 guruhga bo'linib olishadi. Birinchi guruh ishtirokchilari olimlar va shu sohada ish olib borayotgan mutaxassislari bo'lim ular mavzuni yangiliklar bilan o'zlashtiradi. Ikkinchi guruh o'quvchilari matbuotchilar bo'lib ular mavzu yuzasidan olimlar uchun savollar tayyorlashadi. Bunda ko'proq o'qituvchi olimlar va mutaxassislari bilan ko'proq ish olib boradi. Ularga adabiyotlar va yangi mavzu bo'yicha tushunmagan joylari bo'yicha tushunchalar berib o'tadi.

Madaniy o'simliklarning kelib chiqish va xilma-xillik markazi.

Madaniy o'simliklarning xilma-xilligi va geografik tarqalishini o'rganish maqsadida rossiyalik genetik va seleksioner olim N.I.Vavilov 1920-1940 yillarda Rossiya va chet ellarga bir qator ekspeditsiya uyushtirgan. Vavilov madaniy o'simliklarni kelib chiqishni 7 ta markazga bo'lgan. Bu markazlar butun dunyo bo'ylab tarqalgan.

1. Janubiy Osiyo tropik markazi (50%) sholi, shakarqamish va sabzi vatani.
2. Sharqiy Osiyo markazi (20%) soya va tariqni vatani hisoblanadi.
3. Janubiy-g'arbiy Osiyo markazi (14%) bug'doy, suli, dukkaklilar, zig'ir va sabzi vatani.
4. O'rta yer dengizi markazi (11%) karam, qand lavlagi, bed ava zaytun vatani.
5. Abissiya (Efiopiya) markazi oq jo'xori, arpa, yovvoyi no'xat, kofe, banan vatani.
6. Markaziy Amerika markazi oshqavoq, loviya, makkajo'xori, qalampir, go'za va kakao.
7. Janubiy Amerika markazi kartoshka, ananas va tamaki vatani.

Ushban darslikda berilgan va boshqa ma'lumotlardan o'quvchilar foydalanadi. Ikkinchi guruh ularga turli hil shu mavzulardan kelib chiqib savollar beradi. Bunda ikkala guruh ham darsga birdek tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. O'qituvchi bu darsda kuzatuvchi sifatida

ikkala guruhni ham nazorat qilib turadi. Bu darsda ko'proq o'quvchilar o'zlari ishtirok etadi. O'qituvchi o'quvchilarni hatolarini to'g'rilab turadi.

References:

1. Sulliyeva Suluv Xurramovna, Zokirov Qurbonalijon G'aybullo o'g'li "Biologiya o'qitish metodikasi" Toshkent – 2020
2. J.O.Tolipova " Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar" Toshkent-2011
3. A.Zikirayev, A.To'xtayev, I.Azimov, N. Sonin 9-sinf biologiya darsligi Toshkent-2019

